



O'ZBEK TILI LEKSIK TARKIBINING RIVOJLANISH OMILLARI

Norova Gulsanam Maxsutovna

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti o'qituvchisi
Filologiya fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5566733>

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-oktabr 2021
Ma'qullandi: 10- oktabr 2021
Chop etildi: 15- oktabr 2021

KALIT SO'ZLAR

*o'zbek tili leksikasi,
filologiya, lingvistika, eski
turkiy til*

ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada o'zbek tili leksik boyligining o'ziga
xos lingvistik xususiyatlari va rivojlnish omillari xususida
so'z yuritilgan.*

Mustaqillik yillarda erishgan yutuqlarimiz xalq xo'jaligining barcha jabhalarida, xususan, ilm-fan sohasida ham tadrijiy taraqqiyot natijasida ijobjiy o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, filologiya, xususan, tilshunoslik sohasidagi o'zgarishlar, o'zbek tili tarixiga tarixiy hodisa sifatida yondashish olimlarning diqqat-e'tiborida bo'lib kelmoqda. Bunda tilshunosligimizning leksika sohasining tarixiy ildizlari va uning rivojlanish bosqichlari, qadimgi turkiy til va eski turkiy til leksikasi, eski o'zbek tili leksik qatlamining Alisher Navoiy davridagi hamda shu davrlardan tortib XX asrning boshlarigacha bo'lgan bosqichda o'zbek tili leksik boyligining o'ziga xos lingvistik xususiyatlari bo'yicha yechimini kutayotgan masalalar o'rjaniladi. Tilni yangicha qarashlar, metodlar asosida o'rjanish uning barcha sohalarida, shu jumladan, o'zbek tili

tarixi sohasi tizimida ham o'z natijasini bermoqda.

Ma'lumki, jamiyatda bo'ladigan o'zgarishlar, avvalo, tilning leksikasida o'z aksini topadi. Hozirgi o'zbek tilshunosligida amalga oshirilayotgan ishlar, til va uni ta'minlovchi lug'aviy birliklar bo'yicha qilinayotgan sa'y-harakatlar o'zbek tilida leksemalarning shakllanish asoslari, jumladan, keyingi tadqiqotlar natijasida o'zbek tili leksik boyligining semantikasi, uslubiy qo'llanishi kabi lingvistik xususiyatlar ham kuzatildi. Ana shu yangicha qarashlar asosida Alisher Navoiy ijodidan keyingi davr o'zbek adabiy tili leksik qatlamining shakllanish va rivojlanish jarayonlarini daliliy misollar orqali isbotlash, ko'pgina so'zlar, ko'p ma'noli, bir ma'noli, tub va yasama, o'zlashma so'zlar, ulardagi shakldoshlik, ma'nodoshlik, qarshi ma'nolilik hodisalarining turli davrlarda qo'llanish doiralari, chegaralanishi, me'yoriy



belgilarining aniqlanishi ishimizning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

O'zbek tilining taraqqiy etib, adabiy til darajasiga ko'tarilishiga XVI-XX asrlarda turkiy (o'zbek) tilida bitilgan ilmiy, tarixiy, adabiy manbalar asos vazifasini o'tagan bo'lsa-da, uning to'liq shakllanishida Sakkokiy, Atoiy, Gadoiy, Yaqiniy, Lutfiy, Bobur, Muhammad Solih, Alisher Navoiy, Abulg'ozzi Bahodirxon, Turdi, Gulxaniy, Zavqiy, Muqimiy, Maxmur, Fitrat, A.Zohiri, Elbek, M.Behbudiy, A.Avloniy va H.H.Niyoziylarning buyuk xizmatlari bor.

Alisher Navoiy davridan keyingi eski o'zbek tili lug'at tarkibida quyidagi leksik birliklar faol qo'llangan:

Narsa-buyum, voqe-a-hodisa nomlari: havza, yax, shalipaya, itlaq, sibargazar, sharabxor, xarabliq, yaxdan, yaxab, arzanliq, bag'at, shirshunos, mulkdarliq, nanvayliq, ashpazliq, bandaxana, xaylxana, sir-asrar, savdaxana, shahdxana, gurxana, suratxana va h.k.

Belgi-xususiyatni bildiruvchi leksemalar: havalıq, xushhavalıq, qışkı, hukmi, suvlar kichik, quttaut-tariq, binamaz, navahm, kafirvash, hamvar, purmashaqqat, mutabarrak, sayfiydur, qalamiy emas, xushbash, xushmaash, xushtab, namazguzar, türk, sadiq, yaylaq, hamvar-hamvar, dah-i dardah kabi.

Qadimgi turkiy tilda ishlatilgan miqdor, tartib sonlari bilan bir qatorda *hazar* (1000), *tümän* (10000), *lak* (100000) kabi miqdor so'zları ham qo'llangan. *Hazar*, *tümän*, *lak* miqdor so'zları hozirgi o'zbek adabiy tilida iste'moldan chiqqan. Ayrim badiiy manbalarda, tarixiy asarlarda uchraydi. *Tümän* so'zi hozirgi ma'muriy-hududiy bo'linish tizimida qo'llanadi. Bunda leksema semantik tarkibida o'zgarish yuz bergen bo'lib, so'z muayyan miqdor (son)ni emas, balki turlicha hajmga ega bo'lgan

maydon tushunchasini ifodalaydi. Ushbu so'zning hosila semasi hozirgi qo'llanishga asos bo'lgan. Hozirgi o'zbek adabiy tilida qo'llanadigan "Birniki mingga, mingniki tumanga", "Salomatlik tuman boylik" maqollarida, "tumonat odam" birikmasida ham *tümän* leksemasining "ko'p" semasi namoyon bo'lgan. Kishilik olmoshlari, umuman, olmoshlar hozirgi davrdagiga nisbatan fonetik jihatdan farqlanadi. Shu bilan bir qatorda, o'sha davrga xos olmosh so'zlar faol qo'llangan. Masalan, birinchi shaxs birlik ma'nosi *haqir, banda, faqir, men* so'zlari bilan ifodalangan. So'roq olmoshlarining *qayu* shakli ham ishlatilgan. Bu shakl asosan poetik nutqda kuzatilib, keyingi davr adabiy tilida ham davom etgan: *Qayu til birlä ey janan seniğ vasfiğ bayan etsam,*

Tilim lalu közim giryan söyäkläärni chunan örtär (Mashrab).

Son turkumiga oid so'zlar eski o'zbek adabiy tiliga xos shakllarda qo'llangan. *Bir* so'zi tarixan ham, hozir ham biror chama son shaklida kelib, noaniqlikni ifodalaydi. *Ammo ikki* so'zi hozir bu shaklda ishlatilmaydi. Biroq qadimgi turkiy til davrida bu so'z *ikkirar* shaklida ishlatilgan. Bu shakl Bobur asarlarida ham uchraydi: "*Qışlaq bahanasi Hiridin shaban ayınıñ yettisida çıqıb, Balg'is navahisida har yurtta birär kün, ikkirär kün tavaqquf qıla-qıla köch qılur edük, ta vilayatlarg'a tahsil va ishküch uchun barg'anlar kelib qoshılg'aylar*". -ar/-är chama son hosil qiluvchi qo'shimcha boshqa sonlar tarkibida ham uchraydi: *Altı kışig'a yüzär misqal kümüşh, birär tonluq parcha, üchär o'y, birär gavmush...* *Tanbal* va *tavabii bidil* va *bipay bolub, cherigi* va *eli üchär-törtär taqqa* va *tüzgä qacha kirishtilär*.

Til taraqqiyotining har bir bosqichida lug'at tarkibida eski qatlam, yangi qatlam,



zamonaviy qatlam so'zlari mavjud bo'ladi. Boshqa tillardan olingan so'zlar ma'lum bir so'zlarning arxaiklashuviga olib keladi. Aksariyat hollarda, o'z qatlam va o'zlashgan

qatlam so'zlari parallel holda ishlataladi. Ma'nodosh leksemalardan birining arxaiklashuvi shu so'zning ifoda imkoniyati va ma'no xususiyatlari bilan belgilanadi.

References:

1. Bafoyev B. Ko'hna so'zlar tarixi. -Toshkent: Fan, 1991.
2. Egamova Sh. Alisher Navoiy asarlari tilidagi qadimgi turkiy leksika tadqiqi. Filol.fan.nomz.diss.avtoref. -Toshkent, 2007. 23 b.
3. Muxtorov A., Sanaqulov U. O'zbek adabiy tili tarixi. -Toshkent, 1995.
4. www.ziyonet.uz
5. www.referat.uz